

NIZOMIY GANJAVIY “HAFT PAYKAR” VA ALISHER NAVOIY “SAB’AI SAYYOR” ASARLARI QIYOSIY TAHLILI

To'lanova Zulxumor Xudoberdi qizi

*Farg'ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi
3-bosqich 21.75-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy “Xamsa”lari tarkibiga kiruvchi “Sab’ai Sayyor” va Haft Paykar” dostonlari orasidagi o’xshash va farqli jihatlar yoritilgan.

Kalit soʻzlar: xamsanavislik, 7 qissa, Bahromshoh, Dilorom obrazi, an’ana.

Turkiy dunyo jahonga buyuk olimlar, faylasuflar, shoir va yozuvchilarni in’om etgan. Ana shunday iste’dod sohiblaridan Ozarbayjonning atoqli shoiri, mutafakkir va faylasuf Ilyos Yusuf o’g’li Nizomiy Ganjaviy va o’zbek adabiyotining daho shoiri, iftixori Hazrat Alisher Navoiydir.

Hazrat Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy Sharq adabiyotida go’zal asarlar bitib, turkiy xalqlar adabiyoti rivojiga kata hissa qo’shdilar. Ulug’ shoirlarning “Xamsa” asarlarida turkiy tafakkur aks etgani ma’lum!

Sharq adabiyotida birinchi bo’lib Nizomiy Ganjaviy “Xamsa” chilik an’anasini boshlab bergan.

Nizomiy beshligi:

1-doston: “Maxzan ul-asror” adostoni 1180- yilda G’aznaviylar hukmdori Bahromshohga bag’ishlab yozilgan.

2-doston: “Xusrav va Shirin” deb atalib, 1181-yilda yozib tugallangan. Bu dostonni saljuqiylar hukmdori To’g’rul II topshirig’i bilan yaratdi.

3-doston: “Layli va Majnun” bo’lib, 1188-89-yillarda Monuchebr topshirig’iga ko’ra yaratildi.

4-doston: “Haft paykar” 1197- yilda Alouddin Ko’rpa Arslon iltimosiga ko’ra yaratildi.

5-doston: “Iskandarnoma” 1197-1204-yillarda yozilgan.

O’zbek adabiyotining cho’qqisi bo’lgan Alisher Navoiy “Xamsa”si jahon adabiyotining noyob va o’lmas durdonasidir.

Navoiy beshligi:

1-doston: “Hayrat ul-abror” 1483-yilda yaratilgan. 3988 baytni o’z ichiga olgan.

2-doston: “Farhod va Shirin” 1484-yilda yozib tugallangan, 54 bob, 5782 baytni o’z ichiga oladi.

3-doston: “Layli va Majnun” 1484-yilda yozilgan, 38 bob, 3623 baytdan iborat.

4-doston: “Sab’ai Sayyor” 1484-yilda yozib tugallangan, 38 bob, 5009 bayt.

5-doston: “Saddi Iskandariy” 1485-yilda tugallangan, 89 bob va 7215 bayt.

“Sab’ai sayyor” va “Haft paykar” dostonlarining o’xshash va farqli tomonlariga keladigan bo’lsak:

Ikki asar ham Shoh Bahrom haqida yozilgan.

“Sab’ai sayyor”: Shoh Bahrom ovga chiqadi va moniydan Dilorom haqida xabar topadi.

“Haft paykar”: Asardagi Dilorom Bahromning kanizagi bo’ladi.

“Sab’ai sayyor”: Kiyik ovlash voqeasida Dilorom cho’lga tashlab ketiladi va bundan Bahrom keyinchalik aziyat chekadi va hatto kasal ham bo’lib qoladi.

Asarda bu o’ta bo’rttirib tasvirlangan:

Dedi: “O’z jonima ne qildim ,voy!

Bo’lurin buyla ish ne bildim, voy!

Kim o’zi ko’ksin chok etgay,

O’zi jonin o’zi halok etgay?

Ulcha men qildim aylagaymu kishi,

Bu ish ermas edi kishining ishi!

Naylayin bu jahonni jonsiz men,

Bul jahon birla jonni onsiz men,

Jonni olg’ilki, to’ymisham billoh!

Ko’ngul olmakka qo’ymisham billoh!”

“Haft paykar”: Bunda ham Bahrom Diloromni o’ldirishni buyuradi. Lekin shunchaki afsuslanadi xolos.

“Sab’ai sayyor”: Moniy yetti qasr quradi.

“Haft paykar”: Shaydo me’mor yetti mashhur qasrni quradi.

“Sab’ai sayyor”: Hikoyalar 7 musofir tilidan aytiladi.

“Haft paykar”: Asardagi hikoyalar 7 kanizak qiz tomonidan aytiladi.

“Sab’ai sayyor”:7-hikoyatda shoh Bahrom Diloromidan xabar topadi.

“Haft paykar”: Dilorom obrazi birlamchi obraz sifatida asar boshida ishtirok etadi xolos.

“Sab’ai sayyor”: Hikoya qahramonlari avval qiyinchiliklarda toblanib oxiri yaxshilikka erishadilar, yorug’likka chiqadilar.

“Haft paykar”: Avvalo qahramonlar turli ne’matlar orqali sinaladi, biroq ular nafsni yenga olmay oxir oqibat afsus-nadomatda qoladi.

“Sab’ai sayyor”: Dilorom va Bahrom ovga chiqqan payt yomg’ir yog’adi va naytijada eski botqoqning og’zi ochiladi va butun arkoni davlati bilan yutib yuboradi.

“Haft paykar”: Bahrom 2 mahrami bilan qulon oviga chiqadi g’orga kirib g’oyib bo’ladi.

“Sab’ai sayyor”: 5009 bayt

“Haft paykar”: 4600 baytdan iborat.

Xulosa, ikki buyuk dahoning “Xamsa”si jahon adabiyotining o’chmas va noyob durdonasi sifatida uzoq yillardan beri xizmat qilib kelmoqda va keyingi avlodga ham katta va boy meros sifatida qolajak!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Alisher Navoiy .“Xamsa” “Yoshlar matbuoti” 2023.
2. Alisher Navoiy.”Sab’ai sayyor” Mukammal asarlar to’ploami.T.;Fan,1992
3. Sh.Sirojiddinov, G.Ashurova “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodida turkona tafakkur va g’oyaviy badiiy asos” monografiya Toshkent: VNESHINVESTPROM.
4. Nizomiy Ganjaviy “Haft paykar” Ogahiy tarjimasi.
5. D.Yusupova, Sh.Sirojiddinov “Navoiyshunoslik” darslik “Tamaddun” Toshkent 2019.
6. A.Abdug’afurov Buyuk beshlik saboqlari”.-T.;Adabiyot va san’at,1991.